

**IQTISODIYOTNI TO‘LA BANDLIK SHAROITIDA ISHLASHIDA KAPITAL  
BILAN BOG‘LIQ OPERATSIYALAR HISOBINI YURITISHNING AHAMIYATI**

**Muxitdinova Muyassar Ziyaviddinovna**

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti PhD

**Muxiddinov Nuriddin Maxamadamin o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Respublikamiz iqtisodiyotining barcha turdagi resurslar bilan ta‘minlash darajasini oshirish maqsadida kapital oqimi balansini shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini yuritishning ahamiyati, mavzuning dolzarbliligi yoritib berilgan. Mazkur mavzu yuzasidan muallif tomonidan xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiyot, to‘la bandlik, kapital, to‘lov balansi, kapital oqimi balansi.

**Kirish.**

Hozirda har bir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ishlab chiqarish uchun yaroqli bo‘lgan barcha resurslardan to‘la samaradorlik bilan foydalanish siyosati kuzatilmoqda. Iqtisodiyotda to‘la bandlik ko‘rsatgichiga yaqinlashish pirovardida aholining farovonligini oshirish yotadi. Jahon bozoridagi sub‘ektlar, xususan mamlakatlar o‘z iqtisodiyotiga zarur bo‘lgan barcha resurslarni yakka o‘zi ta‘minlay olmaydi. Shu sababli mamlakatlar o‘rtasida integratsiya jarayoni yuzaga keladi. Kapital harakatining glaballashuv sharoitida mamlakatlar o‘rtasidagi oqimini to‘lov balansining tarkibiy qismi bo‘lgan kapital bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini yuritish zarurati yuzaga keladi.

Iqtisodiyotda to‘la bandlik sharoitida kapital oqimi balansini shakllantirish resurslarning o‘z o‘rnida ishlashini ta‘minlaydi. Iqtisodiyotning ma‘lum bir sohasida ortiqcha kapitalning to‘planishini oldini oladi, bu o‘z navbatida kapital likvidligini oshiradi. Iqtisodiyotda qoshilgan qiymatni yaratadi va albatda, yalpi ichki maxsulot hajmi oshadi.

Kapital bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini yuritishning samaradorligini oshirish uchun eng avvalo, mazkur tizimning me‘yoriy-huquqiy asoslarini aniq va haqqoniy tashkil etish, ularni amaliyotda to‘g‘ri ishlashini ta‘minlash kerak.

**Tahlil va natijalar.**

Iqtisodiyotning har bir a‘zosi iste‘molchi sifatida bozorda qatnashadi. Bozorda iste‘mol o‘sgan sari kapital resurslariga ham talab o‘sib boradi. Ushbu talabni qondirish uchun xalqaro integratsiyalashuv jarayonida kapital oqimi harakatlanadi. Har bir mamlakat kapital oqimi balansini hisobda yuritishi, iqtisodiyotda turli muammolarni yuzaga keltirib chiqarmaslikni ta‘minlaydi. Kapital bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi to‘lov balansining bir qismi hisoblanadi. Ma‘lum bir mamlakat korxonasi boshqa mamlakat korxonasiga beg‘araz yordam sifatida moliyaviy resurs ko‘rinishida kapital o‘tkazmalari jo‘natishi hamda ushbu qarzdandirlikni kechishi, tabiiy resurslar, yer, marketing ishlanmalari kabi nomoliyaviy o‘tkazmalar to‘lov balansining aynan kapital bilan bog‘liq operatsiyalar hisobida yuritiladi.

Ushbu kapital bilan bog‘liq operatsiyalar defitsiti to‘lov balansining moliyaviy operatsiyalar hisobi evaziga moliyalashtiriladi. Bu o‘z navbatida mamlakatning boshqa bir mamlakat oldidagi majburiyatini oshiradi.

Kapital operatsiyalar hisobi (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) 2022-yilning birinchi choragida mos ravishda 8,2 mln AQSH dollarini, 2-chorakda 1,2mln AQSH dollarini, 3-chorakda 2,1mln AQSH dollarini va 4-chorakda 10,7mln AQSH dollarini tashkil etdi.<sup>1</sup>

1. <sup>1</sup> S.X.Jumayeva, S.S.Narimonov – “Mamlakat to‘lov balansida portfel investitsiyalarning o‘rni” ilmiy maqola, 2023

Boshqa davlatlarga to'langan to'lovlarga nisbatan chetdan kelgan to'lovlar miqdori ko'p bo'lsa, to'lov balansi faol, ya'ni, ijobiy saldo hisoblanadi. Bunda mamlakatga valyuta oqimi ko'payadi, valyuta fondi o'sadi. Bu jarayonning aksida, passiv to'lov balansi salbiy saldo yuzaga keladi.

Iqtisodiyotda kapital bozorini tashkil qilish hamda faoliyat sohasini tartibga solish, chetdan qo'shimcha kapital resurslari hamda investitsiyalarni jalb qilish, investorlarning huquqiy himoyasini ta'minlash va fuqorolarimizning farovonligini oshirish maqsadida 2022 yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sifatida qayta tashkil etildi.

2023-yil sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan agentlikka Iqtisodiyot va moliya vazirligining kapital bozori faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifa, funktsiya va vakolatlari o'tkazildi. Shuningdek, Respublika fond bozorining axborot resurs markazi agentlikka o'tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan barcha resurslarni harakatini to'g'ri va samarali tashkil etish, ularni hisobini yuritish mamlakatda resurslarning taqsimlanishi hamda qayta taqsimlanishi jarayonining tezligi hamda sifatini yaxshilaydi. Bunga erishish uchun mamlakatdagi kadrlar masalasini muntazam o'qitish va qayta o'qitish kurslarini tashkil etish, jahondagi muvaffaqiyatli amaliyotlarni tizimli tahlil qilish hamda ularni iqtisodiyotimizga olib kirish kerak.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. A.V.Vahobov, A.O'lmasov – "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli darslik, Toshkent 2014, 423 bet
2. B.M.Boboqulov, M.R.Mahmudova – "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli o'quv dasturi, Toshkent 2019, 14 bet
3. S.X.Jumayeva, S.S.Narimonov – "Mamlakat to'lov balansida portfel investitsiyalarning o'rni" ilmiy maqola, 2023